

Xalqaro kitob korgazmasi

Bugun jamiyatimizda kitobxonlikni rivojlantirish, mutolaa madaniyatini takomillashtirish borasida har doimgidan bir necha barobar ko'p miqdorda samarali ishlar amalga oshirilmoqda, tashviqot-targ'ibot ishlari olib borilmoqda. "Gidromelioratsiya" fakulteti SXM-202-guruh talabalari guruh murabbiyi bilan 24-oktabr kunlari Tashkent Book Fest -2019 Toshkent xalqaro kitob ko'rgazma-yarmarkasida ishtirok etdi. O'zbekistonda ilk marotaba otkazilayotgan ushbu yirik madaniy tadbirda yetti mamlakat Buyuk Britaniya, Germaniya, Qozogiston, Koreya, Qirgiziston, Rossiya, Turkiya davlatlaridan 16 ta nashriyot va kitob savdosi tashkilotlari vakillari ishtirok etishmoqda. Shuningdek, O'zbekistondagi elchixonona va xorijiy kompaniyalar, xususan, Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon madaniyat markazi, Xitoy elchixonasi, Janubiy Koreya elchixonasi, Toshkent shahridagi Gyote instituti vakillari ham ko'rgazma-yarmarka ishtirokchilari bo'lishmoqda. Oz'bekistondagi 30 dan ortiq davlat va xususiy nashriyot hamda kitob savdosi tashkilotlari ham mahsulotlarini namoyish etishmoqda. Ko'rgazma doirasida talabalar o'zlariga foydali ma'lumotlar bilan qaytishdi.



Irrigatsiya va melioratsiya kafedra assistenti Shaxboz Mardiyev axboroti

Institut matbuot xizmati rahbari Rahimboy Jumaniyov